

GLOBALLASHUV VA GLOBAL MUAMMOLARNING FALSAFIY JIHATLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.14518077>

Nodiraxon Nishonova Rayimjonovna

Toshkent davlat texnika universiteti

“Falsafa va milliy g‘oya” kafedrası mudiri,

falsafa fanlari doktori, professor

Elektron pochta: n.nodirakhon@bk.ru

Annotatsiya: Mazkur maqola orqali global muammolarning paydo bo‘lishi, mohiyati va ularni bashorat qilishning ahamiyati, global muammolarning rivojlanayotgan mamlakatlarga, texnika va texnologiyalarning ijtimoiy jarayonlariga va atrof-muhitning degradatsiyasiga ta’siri yoritiladi.

Kalit so‘zlar: axborotlashuvi, globallashuv, tarix, mintaq, fan va texnika taraqqiyoti, siyosiy-huquqiy, umumiylik, xususiylik, sanoat xomashyosi, energiya.

Globallashuv asoslarini ilk kapitalizm davrida shakllana boshlagan jahon iqtisodiy bozoridan qidirish lozim. Ma’lumki, jahon iqtisodiy bozorining shakllanishi bungacha hukm surgan feodal parokandalikni bartaraf etdi. Iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi natijasida xalqaro kartellar va sindikatlar, hozirgi kunda esa transnatsional korporatsiyalar vujudga keldi. Jamiyatning axborotlashuvi, axborot texnologiyasining rivojlanishi insoniyat yagona ijtimoiy-madaniy tizimga birlashishiga imkoniyat yaratadi. Insoniyat yagona tarixiy va axborot maydoniga ega universal birlikka aylanib bormoqda. Jahon tarixida birinchi marta butun kishilik jamiyatining taqdiriga daxldor mutlaqo yangi ijtimoiy-madaniy omillar shakllanmoqda. Bundan buyon insoniyatning rivojlanishi asosan mana shu omillar bilan belgilanadi.

Globallashuv o‘z mohiyati jihatidan koinotimizdagi har bir inson, har bir davlat, qolaversa jahon hamjamiyatini befarq qoldirmaydigan va uni faqatgina xamkorlikdagina hal etilishi lozim bo‘lgan muammolarni o‘z tarkibiga oladi. Global jarayon asosiy ziddiyati shakllanayotgan umuminsoniy turmush tarzi bilan milliy turmush tarzlari o‘rtasidagi farq va tafovudlarni umumiy maxrajga olib kelishi masalalari bilan bog‘likdir. Ammo umumbashariy turmush tarzlarining ijobiy, asosli, barcha millatlar va elatlar qabul qilgan jihat va hislatlarini umumlashtirish asosida quriladi. Shu nuqtai nazardan olganda, har bir xalqning turmush tarzi uziga hos ijobiy hislat va xususiyatlarini saqlab qolgan holda, umuminsoniy mazmunga ega bo‘lib, barcha xalqlarning asosiy talablariga javob berishi kerak. L.E.Grinning fikricha,

“Globallashuv mintaqalar va umuman jahonning integratsiyasi va yaqinlashuvining natijasidir”. U globallashuvga jarayon sifatida qaraydi va unga quyidagi tarifni beradi. “Globallashuv bu jarayon, uning natijasida dunyo o‘zining barcha subektlariga yanada aloqador va yana ham bog‘liq bo‘ladi”.

Global muammolar-umumbashariy hayot va taraqqiyot bilan bog‘liq hozirgi zamon muammolari. Ular jumlasiga jahon termoyadro urushining oldini olish, xalqaro terorchilikka qarsho kurash va barcha xalqlar uchun tinchlikni ta‘minlash; rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasidagi tafovutni bartaraf etish, ochlik, qashshoqlik va savodsizlikni tugatish, rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining tez sur‘atlar bilan ko‘payayotganligini tartibga solish, atrof muhit halokatli tarzda ifloslanib borayotganligining oldini olish; insoniyatni kerakli resurslar- oziq-ovqat, sanoat xomashyosi, energiya manbalari bilan ta‘minlash, fan va texnika taraqqiyoti salbiy oqibatlariga olib kelishiga yo‘l qo‘ymaslik kabilar kiradi. Global muammolar avvalo jahonda kechayotgan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, harbiy, ilmiy-texnologik, ijtimoiy-madaniy jarayonlarning umumbashariy ahamiyat kasb etishi natijasida yuzaga keldi.

Globallashuv – turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, manaviyati, odamlari o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir va bog‘liqlikning kuchayishidir. Albatta, globallashuv tushunchasiga berilgan ta‘riflar juda ko‘p. Masalan, fransuz tadqiqotchisi B.Bandi globallashuv jarayonining uch belgisini quyidagicha keltiradi:

- globallashuv bu – doimiy davom etuvchi tarixiy jarayon;
- globallashuv bu – jahonning gomogenlashuvi va universallashtirish jarayoni;
- globallashuv bu – milliy chegaralarning “yuvilib ketish” jarayoni.

Globallashuv zamonaviy jamiyatga ko‘plab ijobiy jihatlari olib kirish bilan birga, insoniyat taraqqiyotidagi shunday pallani o‘zida aks ettirayotirki, endilikda dunyo xalqlari vujudga kelayotgan muammolarga qarshi yolg‘iz kurasha olmaydi, ularni birgalikda hal qilishi mumkin xolos. Bugungi kunda globallashuv o‘z tasirini o‘tkazmagan soha qolmadi. Dastlab u mamlakatlar iqtisodiy hayotidan boshlangan bo‘lsa, so‘ngra siyosat, axloq, milliy manaviy hayot, insonlarning kundalik turmush kechirishigacha bo‘lgan barcha jarayonlarni o‘z ichiga qamrab oladi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev tashabbusi va rahbarligida “Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi” tamoyiliga asosan yettita ustuvor yo‘nalish ishlab chiqildi va izchil amalga oshirilmoqda “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” ijtimoiy-falsafiy bilimlar rivojida muhim o‘rin tutadi. Zotan bu hujjat Yangi O‘zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma‘rifiy asoslarini belgilab beradi, ularni tez sur‘atlar bilan o‘zgarayotgan zamon talablari asosida jadal

rivojlantirishning uchun ilmiy-nazariy, amaliy-konstruktiv zamin tayyorlaydi, taraqqiyotning yangi bosqichi uchun mo‘ljallangan muhim dasturilamal hisoblanadi.

2017 yil 19 sentabr kuni Nyu-York shahrida BMT Bosh qarorgohida o‘z ishini boshlangan Bosh Assambleyaning 72-sessiyasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev nutq so‘zladi. U o‘z nutqida BMTning global xavfsizlik va barqarorlikni saqlash, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolarni hal etish, terrorizm, ekstremizm, narkotrafik, uyushgan jinoyatchilik hamda bugungi kunning boshqa xavf va tahdidlariga qarshi kurashishda tutgan o‘rnini alohida qayd etdi. Zero, dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ushbu muammolarni bartaraf etishning ishonchli vositalarini, mukammal dasturlarini ishlab chiqishga xarakat qilinmoqda, katta miqdordagi mablag‘lar ajratilmoqda.

Global muammolar butun dunyogagina tegishli bo‘lmay, uning mintaqalari va hatto ayrim mamlakatlar darajasida namoyon bo‘lgani bois, ilmiy adabiyotlarda ularning umuminsoniy ahamiyatini tan olish bilan bir qatorda, ularni mohiyati o‘zgacha, ta’sir doirasi esa torroq bo‘lgan ayrim, mahalliy, mintaqaviy muammolardan farqlash ham amalga oshiriladi. Turli darajadagi muammolarni «umumiylik», «xususiylik» va «yakkalik» falsafiy kategoriyalarining muayyan ifodasi sifatida o‘rganar ekanlar, ularni odatda shunday talqin qiladilarki, xususiy muammolar ayrim muammolar sifatida, mahalliy va mintaqaviy muammolar – xususiy muammolar sifatida, global muammolar esa – umumiy muammolar sifatida amal qiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkin-ki, zikr etilgan muammolarni farqlash zamirida yotuvchi asosiy mezon ham ayni shu yondashuvni belgilaydi. U geografik deb ataladi, chunki makon omilini yoki, boshqacha aytganda, muayyan muammolar mavjud hududni aks ettiradi.

Xususiy muammolar davlat faoliyatining muayyan jabhasiga, ayrim aholi yashaydigan punktlarga yoki kichik tabiiy ob’ektlarga tegishli bo‘lgan muammolardir. Bular, odatda, turli avariylar, nosozliklar natijasida yuzaga keladigan har xil muammolar, mahalliy ijtimoiy konfliktlar va sh.k.

Mahalliy muammolar tushunchasi yuqoriroq darajadagi muammolarga, aniqroq aytganda, ayrim mamlakatlarga yoki yirik mamlakatlarning ancha katta hududlariga tegishli bo‘lgan muammolarga nisbatan tatbiq etiladi. Bu yerda odatda kuchli zilzilalar, yirik suv toshqinlari yoki, masalan, kichik davlatdagi fuqarolar urushi nazarda tutiladi.

Milliy muammolar tushunchasi ijtimoiy-siyosiy va ilmiy muomalada ba’zan muayyan davlat yoki milliy hamjamiyatning ma’lum qiyinchiliklari, g’am-

tashvishlarini aks ettiradi. Miqyos darajasiga qarab ular mintaqaviy yoki mahalliy muammolar sifatida talqin qilinishi mumkin.

Mintaqaviy muammolar ayrim qit’alar, dunyoning yirik ijtimoiy-iqtisodiy hududlari yoki ancha yirik davlatlarda yuzaga keladigan muhim masalalar doirasini qamrab oladi. Bunday muammolarga Sharqiy Yevropaning bir necha mamlakatlari hududi radioaktiv zaharlanishiga olib kelgan Chernobil fojiasi yoki bir qator davlatlarni qamrab oluvchi ancha katta hududlarda yuz bergan iqlim o’zgarishlari misol bo’lishi mumkin.

Foydalangan adabiyodlar ro‘yxati.

1. Mirziyoev Sh. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnoma. 22 dekabr 2017 yil. – Toshkent, O‘zbekiston, 2017.
2. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev asarlari va ma’ruzalaridan olingan fikrlar. – Toshkent: “Yoshlar nashriyot uyi”, 2019.
3. Otamurodov S. Globallashuv: millatni asrash mas’uliyati. Toshkent: O‘zbekiston, 2018
4. Otamurodov S. Globallashuv va millat. - T.: Yangi asr avlodi. 2008.
5. Qahhorova Sh. Global ma’naviyat - globallashuvning g‘oyaviy asosi. - T.:Tafakkur, 2009. -670 b.
6. Nishonova N. Falsfa - O‘quv qo‘llanma – Toshkent: TDTU, 2023.
7. Islamova D.X. Falsafa. / Uslubiy qo‘llanma- T- O‘z.R. Fan.akad, 2022.